

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

ALISHER NAVOIYGA IZDOSHLIK VA BADIY KAMOLOT

Sohiba Umarova

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti

E-mail: sohibaumar@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Xorazm adabiy muhiti Hirot adabiy maktabiga o‘xshash ravishda an‘analarning davom ettirilishi, xususan, Alisher Navoiy she‘riyati ta‘sirida ko‘plab tatabbu‘ yoki taxmis g‘azallar yaratilishi bilan bog‘liq jihatlar xususida so‘z yuritiladi. Ma‘lumki, Navoiy g‘azallariga muxammas bog‘lash, har bir ijodkor uchun faxr tuyg‘usini bergan. Xorazm adabiyotining Feruz davri ijodkorlari buyuk shoir Alisher Navoiy ijodiga kuchli hurmat va sadoqatli muhabbat bilan yondashganlar. Muhammad Rahimxon Soniy – Feruz Xivada yirik adabiy maktabga yetakchilik qilarkan, o‘zining yaqin qarindoshlarini ham bu davraga kirish, she‘r yozish, devon tartib berishga da‘vat etadi. Shu jihatdan, Alisher Navoiy she‘riyati ko‘plab shoirlar qatori Xorazm shahzoda shoirlari ijodiga ham asos bo‘lib xizmat qilgan. Shahzoda shoirlardan Sultoniy, Sa‘diy, G‘oziy, Asad kabilar devonlarida Alisher Navoiy g‘azallariga hamohang yozilgan she‘rlar bilan birga aynan biron bir g‘azaliga tatabbu‘ yozish ham ko‘plab uchraydi. Chunki Xorazm adabiy muhiti shoirlarining barchasi Navoiy ijodidan poetik mahorat sirlarini o‘rganishgan. Maqolada Sultoniy va Sa‘diy tomonidan yozilgan taxmis muxammaslar, ularda Navoiy ijodiga qay darajada uyg‘un yozilgani, an‘anani ijodiy davom ettirish darajasi kabi holatlar tahlilga torildi.*

Kalit so‘zlar: *Xorazm, adabiy muhit, devonchilik, an‘ana, Navoiy, shahzoda shoir, g‘azal, vazn, qofiya, muxammas, taxmis.*

Аннотация: *В этой статье рассматривается продолжение традиций в конце 19-го века и начале 20-го века, аналогичных еретической литературной школе хорезмийской литературной среды, в частности, аспекты, связанные с созданием многих татаббу или гипотетических газелей под влиянием поэзии Алишера Навои. Известно, что привязка мухаммада к газелям Навои вызывала чувство гордости за каждого создателя. Создатели ферузского периода хорезмийской литературы подходили к творчеству великого поэта Алишера Навои с большим уважением и преданной любовью. В то время как Мухаммад Рахим Хан возглавляет крупную литературную школу в Сани – Феруз-Хиве, он также призывает своих близких родственников войти в этот круг, писать стихи девонского ордена. В этом отношении поэзия Алишера Навои послужила основой для творчества принца хорезмийских поэтов, среди многих других. Принц - один из поэтов Дэв, таких как Султани, Саади, Гази, Асад наряду со стихами, написанными в гармонии с газелями Алишера Навои, татаббуёзиши также встречается в большом количестве только в некоторых газали. Потому что все поэты хорезмской литературной среды почерпнули секреты поэтического мастерства из творчества Навои. В статье были сведены к анализу такие случаи, как предположение о султанах и саадах, насколько они гармонично вписались в творчество Навои, и степень творческого продолжения традиции.*

Ключевые слова: *Хорезм, литературная среда, религиозность, традиция, Навои, принц-поэт, газель, рифма, мухаммад, тахмис.*

Abstract: *This article deals with the continuation of traditions in the late 19th century and early 20th Century, similar to The Heretic literary School of the Khwarezmian literary environment, in particular, aspects related to the creation of many tatabbu or hypothetical ghazals influenced by the poetry of Alisher Navoi. It is known that mukhammas binding to the ghazals of Navoi gave a*

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

sense of pride for each creator. The creators of the Feruz period of khwarezmian literature approached the work of the great poet Alisher Navoi with strong respect and devoted love. While Muhammad Rahim Khan leads a large literary school in Sani – Feruz Khiva, he also challenges his close relatives to enter this circle, write poetry, Devonian order. In this respect, Alisher Navoi's poetry served as the basis for the work of Prince Khwarezmian poets, among many others. The prince is one of the poets in the Devas like Sultani, Saadi, Ghazi, Asad along with poems written in harmony with the ghazals of Alisher Navoi, tatabbu'yo'zish is also found in large numbers in just some Ghazali. Because the poets of the Khorezm literary environment all learned the secrets of poetic skill from the work of Navoi. In the article, such cases as the assumption of the Sultans and Saadians, to what extent they were harmoniously written into Navoi's work, and the degree of creative continuation of the tradition were narrowed to analysis.

Keywords: Khorezm, literary environment, devon, tradition, Navoi, Prince poet, ghazal, taxmis, mukhammas, estimation.

O‘zbekiston Respublikasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qo‘lyozmalar fondida “Devoni Sultoniy, Devoni Sa‘diy, Devoni Sodiq, Devoni G‘oziy, Devoni Asad”lardan tashkil topgan majmua saqlanadi. She‘riy majmua saroy kotiblaridan Bobojon Tarro – Xodim tomonidan ko‘chirilgan. Bu devonlar shahzoda shoirlar tomonidan tuzilgan bo‘lib, ularda turli xil janrdagi she‘rlar jamlangan. Shahzoda shoirlarning barchasi turkiy adabiyotning mutafakkir shoiri Alisher Navoiyga izdoshlik qilishgan, an‘analarni davom ettirgan holda uning g‘azallariga tatabbu’ bog‘lashgan, taxmislar yozishgan. Sayyid Nosir to‘ra Feruzning nabirasi bo‘lib, Sultoniy taxallusi bilan she‘rlar yozgan. Navoiyning “Ko‘nglim o‘rtansun agar g‘ayringg‘a parvo aylasa...” deb boshlanuvchi 10 baytli g‘azaliga Sultoniyning ushbu muxammasi “Devoni Sultoniy”dan joy olgan:

*O‘tga ko‘ysun jondin sandin tabarro aylasa,
Ya‘ni sandin o‘zga bir dilbar tamanno aylasa,
Bulsun ovora xirad ishqingni ifsho aylasa,
Ko‘nglum o‘rtansin agar g‘ayringg‘a parvo aylasa,
Har ko‘ngul hamkim sening shavqingni paydo aylasa. [3.12]*

Alisher Navoiyning ushbu oshiqona-orifona mazmundagi g‘azalida oshiqning ma‘shuqasini boshqalardan qizg‘onishi, ag‘yorlardan asrashi ifoda etiladi. Professor N.Komilov yozganidek, ushbu g‘azalda “oshiqning o‘z ma‘shuqasiga ishq shunchalik kuchliki, u hech kimni unga yaqinlashtirgisi kelmaydi, iloji bo‘lsa-yu, mahbubasini barcha g‘ayr va begona kishilardan yashirsa, hech kim u haqda gapirma, hatto nomini tilga olmasa. Shu bois har bir bayt bir iltijoli qasamday jaranglaydi, ya‘ni oshiqning o‘zi ham yordan o‘zgaga boqmaslikka ont ichadi”. [7.38]

Shu o‘rinda aytish kerakki, Sultoniy muxammasida Navoiy g‘azalining ba‘zi baytlari tushirib qoldirilgani ko‘rinadi. Jumladan, biz muxammas matnida g‘azalning 3 bayti, ya‘ni, “Har kishi vaslin tamanno aylasam, navmid o‘lay, Har kishi hamkim

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

sening vasling tamanno aylasa” misralarini uchratmadik. Taxminimizcha, Sultoniy ko‘rgan qo‘lyozmada Navoiy g‘azalidagi ushbu bayt bo‘lmasa kerak. Yoki muxammas ko‘chirilishida kotib tomonidan chalkashlikka yo‘l qo‘yilgan. Bunga aniqlik kiritish “Devoni Sultoniy”ning alohida ko‘chirilgan nusxalariga murojaat etish bilan amalga oshiriladi. Navoiyning ushbu g‘azalining to‘liq matnida esa bu misralar mavjud. [2.66] Sultoniy muxammasining 3-bandi shunday davom etadi:

*Maskan aylab ul parivash hajrida tog‘ tuzum,
Hajr za‘fidin bo‘lubdur guhar yanglig‘ nurum,
Gar ishonmassan sanga ravshan qilay oyg‘on so‘zim,
O‘zgalar husnun tomosho aylasa, chiqsun yuzum,
O‘zga ko‘zga ham seni husnung tomosha aylasa. [3.11]*

G‘azalning 4-baytidagi “ko‘zum” so‘zi o‘rniga “yuzum”, “bir ko‘z hamki” o‘rniga “ko‘zga ham”, “husnungni” o‘rniga “husnung” kabi holatlar biroz chalkash yozilgani uchun ma’noda noaniqlik seziladi. G‘azal aslida:

*O‘zgalar husnin tamoshoh aylasam, chiqsun ko‘zum,
O‘zga bir ko‘z hamki husnungni tamoshoh aylasa [2.66]*

tarzida yozilgan. Ushbu muxammasining umumiy ma’nosi shuki, Sultoniy misralarida esa ko‘proq oshiqona hissiyotlar, holatlar ifoda etiladi, Navoiy oshiqona g‘azalida orifona fikrlarni ham singdirgan.

Sharq mumtoz adabiyotida o‘zga bir shoir she’ridan ta’sirlanib, undagi vazn, qofiya va radifni saqlagan holda asar yaratish adabiy aloqa va o‘zaro ta’sirning keng tarqalgan shakllaridan bo‘lib, salaflar yoki zamondosh shoirlar bilan muayyan tarzda o‘zaro ijodiy musobaqaga kirishish bilan bog‘liq an’ana hisoblangan. Bu an’ana Sultoniydan boshqa shahzoda shoirlar ijodida ham kuzatiladi. Jumladan, Sa’dulloh to‘ra Sa’diy Xivaning so‘nggi xoni Said Abdullaxon (1918-1920-yillar Xiva xoni)ning o‘g‘li bo‘lib, bobosi Muhammad Rahimxon II Feruz saroyida o‘sib, ulg‘aygan. Sa’dulloh to‘ra Sa’diy yoshligidan adabiyotga qiziqqadi, Sharq mumtoz ijodkorlarining asarlarini o‘qib chiqadi. O‘zbekiston Respublikasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan AR-7092 inventar raqamli “Devoni Sa’diy” matni bilan tanishganimizda, qo‘lyozmadagi she’rlar soni va janrlari quyidagicha ekanligi ma’lum bo‘ladi: g‘azallar - 175, mustazod - 2, murabba’ - 1, muxammas - 14 (asosiy matnda), musaddas - 5, musabba’ - 2, masnaviy - 2, qasida - 3[4].

Sa’diy she’rlari, asosan, oshiqona mavzuda bo‘lib, ko‘proq an’anaviy mumtoz lirikaga monand yozilgan. Sharq devonchilik an’anasiga muvofiq “Devoni Sa’diy”,

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

avval, 1, 2, 3-hamd g‘azallardan keyin na‘t g‘azal keladi. Sultoniy devonidagi g‘azallar ko‘proq ramal, hajaz, rajaz bahrlarida yozilgani ma‘lum bo‘ladi.

“Devoni Sa‘diy”da jami 8 xil janrdagi she‘rlar jamlangan bo‘lib, ko‘proq shoir ijodida an‘analarning adabiy ta‘siri ko‘zga tashlanadi. Xususan, shoirning muxammaslari Alisher Navoiy, Fuzuliy, Ogahiy, Feruz kabilarning g‘azallariga yozilgan. Sa‘diy muxammaslarini ustozlarga izdoshlik, ijodiy ergashish va payravlik tarzida sharhlasak, xato bo‘lmaydi. Qo‘lyozmaning 80-81-betlaridagi “Zihi sariri risolat uzra erursan shoh” deb boshlanuvchi 9-muxammasga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, muxammas matni shunday beriladi:

*Zihi sariri risolat uzra erursan shoh,
Karam bila sanga Haq berdi oncha izzat-u joh.
Shariating bila tuz yo‘l topar bori gumroh,
Yuz-ko‘zingda muayyan kamoli sun‘i Iloh
Ne yuzdurur bu, ne ko‘z, laa ilaaha illalloh.*

Muxammas matnidan ma‘lum bo‘ladiki, Sa‘diy muxammasi Alisher Navoiyning “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidagi “Yuz-u ko‘zungda muayyan kamoli sun‘i Iloh” deb boshlanuvchi na‘t g‘azaliga yozilgan. “Deyarli o‘n asrga yaqin shoirlar tomonidan yozilgan na‘t g‘azallarni diqqat bilan o‘qisak, hazrat Payg‘ambarimiz bani basharning eng ulug‘ va eng komil insoni sifatida ta‘rif-tavsif qilingan. Shoirlar na‘t g‘azallarida payg‘ambar alayhissalomni oddiy maqtash yo‘lidan bormay, yuksak axloq g‘oyalarini ham targ‘ib qilganlar. Ya‘ni muborak surat bilan birga ilohiy siyrat madh etilgan va ulardan ibrat olishga da‘vat etilgan”[5.3]. Sa‘diy muxammasi ham payg‘ambarimizning ta‘rif-tavsiflari, Muhammad (s.a.)ning Xudoyi Taoloning sharafiga muyassar bo‘lgani va barcha musulmon ahli uchun payg‘ambar xulq-atvori asosiy mezon ekanligini tarannum etadi.

*Shabe sango qilibon lutfni Xudo shomil,
Karam birla sani dargohig‘a qilib vosil.
Qilib u dam bori maqsudlaringni Haq hosil.
Jamoling oyinayi “Vash-shams” surasi nozil,
Ko‘zing qarosig‘a “mo zog‘” surmasi hamroh.*

Shu o‘rinda aytish kerakki, Sa‘diy muxammasida Navoiy g‘azali baytlaridagi ba‘zi so‘zlar o‘zgargani ma‘lum bo‘ladi. Jumladan, biz muxammasnig 2-bandi 4-misrasida Navoiy g‘azalidagi “ko‘zgusi” so‘zi o‘rniga “surasi” so‘zi yozilgan. Ya‘ni, Alisher Navoiy g‘azalida “Jamoling oyina va-sh-shamsi ko‘zgusi nozil” [1.403] bo‘lsa, qo‘lyozmada “Jamoling oyinayi va-sh-shamsi surasi nozil” yozilgan. Yoki muxammasning 5-bandi 5-misrasida Navoiy g‘azalidagi “hasratingdin” so‘zi o‘rniga

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

“furqatingdin” so‘zi yozilgan. G‘azalda “Emaski charx chekar kecha hasratingdin oh” bo‘lsa, qo‘lyozmada “Emaski charx chekar furqatingdin o‘ylaki oh” tarzida yoziladi.

Umuman, Xorazm adabiy muhiti Hirot adabiy maktabiga monand rivoj topgan va XIX asr oxiri – XX asr boshlari Xorazm shoirlari, xususan, shahzoda shoirlar ijodida an‘analarni davom ettirish maqsadida nazira, tatabbu‘, taxmislar yozish rivojlantirilgan. Xorazm shoirlarning barchasi Alisher Navoiyni o‘zlariga ustoz deb bilgan va uning g‘azallariga taxmis, tatabbu‘lar yozish orqali o‘zbek she‘riyatining rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shgan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алишер Навоий. Фаройиб ус-сиғар. Мукаммал асарлар тўплами. 3 жилд. – Т.: “Фан”, 1988.
2. Алишер Навоий. Бадойиъ ул-бидоя. Мукаммал асарлар тўплами. Биринчи том. – Т.: “Фан”, 1987. – Б. 66.
3. Бобожон Тарроҳ. Хоразм навозандалари. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994.
4. ديوان سعدى Majmua. Qo‘lyozma. Inv. raqami: P N – 909 V.
5. ديوان سعدى Qo‘lyozma. Inv. raqami: AP -7092.
6. Сайфуллоҳ С. Наът ғазаллар моҳияти. Алишер Навоий. “Хазойин ул-маоний”даги наът ғазаллар. – Т.: “Ноширлик ёғдуси”, 2010.
7. Эркинов А., Полвонов Н., Аминов Ҳ. Муҳаммад Раҳимхон II – Феруз кутубхонаси феҳристи. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2000.
8. Комилов Н. Маънолар оламига сафар. – Т.: “Tamaddun”, - Б. 38.